

Yuksak marra sari

Bilimning kengayishi, bilganlaringizning mustahkamlanishi intellektual musobaqalar bilan belgilanadi. Bilimning onasi takrorlashdir. Bu esa g'oliblik gashtini surish uchun kitob mutolaasiga kirishishni talab etadi. 2018 yil 22 dekabr kuni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti talaba yoshlarini darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida fakultet dekanati hamda "Yoshlar ittifoqi" fakultet kengashi hamkorligida tashkil etilgan 2018-2019 - o'quv yili boshidan start olgan "Zakovat" ligasi o'yinlarining final bosqichi o'tkazildi. Zakovat o'yini bahslarida fakultetning 9 ta jamoasi ishtirok etdi. Final o'yinida 1-o'rinni "Genius" jamoasi qo'lga kiritdi, 2-o'rinni "Javob" jamoasi hamda 3-o'rinni "Auditor" ishg'ol etdi. Zakovat o'yinlarida faol ishtirok etgan jamoalar tashakkurnomalar va qimmatbaho sovg'alar bilan rag'batlantirildi. Birinchi o'rinni qo'lga kiritgan jamoaga planshet taqdim etildi.



"SXTTE va B" fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov